

INSON VA TABIAT MUNOSABATI

Samadova Sevinch

*Jlzzax davlat pedagogika universiteti maxsus pedagogika va psixologiya fakulteti
surdopedagogika yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning bir-biriga ta'siri hamda ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari yoritilgan. Inson faoliyatining tabiatga ijobiy va salbiy ta'siri, ekologik muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, insonning tabiat bilan uyg'un yashashi kelajak avlod hayotida muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *tabiat, inson, ekologiya, muvozanat, atrof-muhit, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются взаимосвязь между человеком и природой, их влияние друг на друга, а также вопросы формирования экологической культуры. Проанализированы положительное и отрицательное воздействие человеческой деятельности на природу, экологические проблемы и пути их устранения. Также подчеркивается важность гармоничного сосуществования человека с природой для будущих поколений.*

Ключевые слова: *природа, человек, экология, равновесие, окружающая среда, экологическая культура, устойчивое развитие.*

Annotation: *This article explores the interrelationship between humans and nature, their mutual influence, and the issues of developing environmental culture. It analyzes the positive and negative impacts of human activity on nature, environmental problems, and ways to overcome them. The importance of living in harmony with nature for the well-being of future generations is also emphasized.*

Keywords: *nature, human, ecology, balance, environment, environmental culture, sustainable development*

Tabiatni muhofaza qilish - tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar, har bir odam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi. Hozirgi vaqtda inson yashab, to'xtovsiz munosabatda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5–4,7 milliard yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta'sirida, ya'ni Quyosh nuri, Yerning gravitatsiya kuchi, ko'lami, aylanma harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o'zgarishi, ekzogen jarayonlar ta'siri, organik dunyoning paydo bo'lishi va taraqqiyoti ta'sirida tarkib topgan. Tabiiy muhitning holati o'zaro ta'sir etib turuvchi ko'p omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog'liq. Chunki bir joyning

iqlimi Quyosh nurining tushish burchagiga, ya'ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq yoki yaqinligi, oqimlari va boshqalarga; o'simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog' jinslari, relyef, tuproqlarga bog'liq. Bu tabiiy omillarning birontasida o'zgarish ro'y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitda o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ba'zan, tabiatning biror komponentiga ko'rsatilgan arzimagan ta'sir hech kutilmagan katta o'zgarishlarga, xususan, xavfli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashadi, muhit tarkibiga, undagi modda va energiyaning aylanma harakatiga ma'lum darajada o'zgarish kiritadi. Yerning havo qobig'idagi hozirgi gazlar tarkibi, miqdori, ayrim foydali qazilmalari, masalan, ohaktosh, toshko'mir, qo'ng'ir ko'mirning hosil bo'lishi, tuproq qoplaminin tarkib topishi, rivojlanishi organizmlarning hayot faoliyati natijasidir. Organik dunyoning tabiiy muhit bilan o'zaro ta'siri biologik evolyutsiya jarayonida yangi turlarning paydo bo'lishi, raqib turlar sonining ko'payishi yoki kamayishi va atrof muhitning o'zgarishi natijasida o'zgaradi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabat insoniyat tarixining eng qadimiy masalalaridan biridir. Tabiat — bu inson hayotining manbai, yashash muhiti va rivojlanish omilidir. Inson esa tabiatning bir bo'lagi bo'lib, uning har bir faoliyati tabiatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, zamonaviy davrda insonning tabiatga nisbatan munosabati masalasi global muammoga aylanmoqda. Tabiat inson hayotining barcha sohalarida muhim o'rin tutadi. Toza havo, sof suv, serunum yer, o'rmonlar va hayvonot dunyosi insonning hayoti va salomatligi uchun zarurdir. Inson tabiatning ushbu ne'matlarisiz yashay olmaydi. Shu bois, tabiatni asrash va uni kelajak avlod uchun saqlab qolish har bir insonning burchidir. So'nggi yillarda sanoat, texnologiya va transportning rivojlanishi natijasida tabiatga zarar yetkazuvchi omillar ko'paydi. O'rmonlarning kesilishi, havoning ifloslanishi, chiqindilarning ko'payishi va iqlim o'zgarishi global ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu holat inson salomatligiga, hayvonot va o'simlik dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqdir. Inson va tabiat o'rtasidagi sog'lom munosabatni ta'minlash uchun ekologik madaniyatni shakllantirish zarur. Har bir fuqaro o'z hayot tarzida ekologik tamoyillarga amal qilishi lozim: chiqindilarni to'g'ri ajratish, daraxt ekish, suv va elektr energiyasini tejash, tabiatni ifloslantirmaslik kabi amallar orqali inson tabiatni asrashga hissa qo'shadi. O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ko'plab davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. "Yashil makon" umummilliy loyihasi, ekologik ta'limni rivojlantirish va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha chora-tadbirlar shular jumlasidandir. Tabiatni asrash — bu faqat bugungi kun emas, balki kelajak avlod farovonligi uchun ham mas'uliyatdir. Inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Inson tabiatni asrasa, tabiat ham unga saxovat bilan javob beradi. Tabiatga mehr, e'tibor va mas'uliyatli munosabat orqali sog'lom muhit, farovon hayot va barqaror kelajakni ta'minlash mumkin. Shunday ekan, har bir inson tabiatni sevish, uni asrash va qadrlashni o'z hayotiy shoriga aylantirishi zarur. Tabiatni muhofaza qilish - tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson

manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar, har bir odam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi.

Hozirgi vaqtda inson yashab, to'xtovsiz munosabatda bo'lib kelayotgan tabiiy muhit uzoq geologik davrlar (4,5–4,7 milliard yil) mobaynida bir qancha omillarning birgalikda ta'sirida, ya'ni Quyosh nuri, Yerning gravitatsiya kuchi, ko'lami, aylanma harakatlari, tektonik harakatlar, havo va suv qobiqlarining vujudga kelishi va o'zgarishi, ekzogen jarayonlar ta'siri, organik dunyoning paydo bo'lishi va taraqqiyoti ta'sirida tarkib topgan. Tabiiy muhitning holati o'zaro ta'sir etib turuvchi ko'p omillarning murakkab majmuida tarkib topgan tabiiy muvozanatga bog'liq. Chunki bir joyning iqlimi Quyosh nurining tushish burchagiga, ya'ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq yoki yaqinligi, oqimlari va boshqalarga; o'simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog' jinslari, relyef, tuproqlarga bog'liq. Bu tabiiy omillarning birontasida o'zgarish ro'y bersa, tabiiy muvozanat buziladi, bu esa tabiiy muhitda o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Ba'zan, tabiatning biror komponentiga ko'rsatilgan arzimagan ta'sir hech kutilmagan katta o'zgarishlarga, xususan, xavfli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Har qanday tirik mavjudot o'z atrofini o'rab turgan tabiiy muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi, undan o'ziga kerakli narsalarni oladi, shu muhitda moslashadi, muhit tarkibiga, undagi modda va energiyaning aylanma harakatiga ma'lum darajada o'zgarish kiritadi. Yerning havo qobig'idagi hozirgi gazlar tarkibi, miqdori, ayrim foydali qazilmalari, masalan, ohaktosh, toshko'mir, qo'ng'ir ko'mirning hosil bo'lishi, tuproq qoplamining tarkib topishi, rivojlanishi organizmlarning hayot faoliyati natijasidir. Organik dunyoning tabiiy muhit bilan o'zaro ta'siri biologik evolyutsiya jarayonida yangi turlarning paydo bo'lishi, raqib turlar sonining ko'payishi yoki kamayishi va atrof muhitning o'zgarishi natijasida o'zgaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Qodirov A., Eshboyeva S. Ekologiya asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. www.ekologiya.uz
5. www.lex.uz